

TASDIQLAYMAN
Boshqaruv raisi
o'rinbosari v.b
L.K.Djumaniyazov



"11-"

TEXNIK TOPSHIRIQ POS-TERMINALLARNI XARID QILISH BO'YICHA

Toshkent – 2026 yil

TEXNIK TOPSHIRIQ

Uskunalarini sotib olishning asosi va maqsadi

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-sonli "Davlat xaridlari tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori, hamda xaridlarni o'tkazish to'g'risidagi nizom asosida.

Xaridning maqsadi — "Humo" banklararo to'lov tizimining plastik kartalariga xizmat ko'rsatish doirasida bank terminal tarmog'ini kengaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali raqobatbardosh ustunliklarga erishish, shuningdek, to'lov terminallariga (keyingi o'rinlarda – qurilmalar) sifatli servis xizmatlarini olishdan iborat.

TEXNIK TALABLAR

Xarid qilingan qurilmalar quyidagi texnik talablarga javob berishi kerak:

To'lov terminallariga qo'yiladigan talablar

№	Parametrlar	Majburiy talablar
1.	Aloqa konfiguratsiyalari	4G/3G/2G + Wi-Fi® 2.4 GGts + Bluetooth® 4.2 Qo'shimcha: 4G/3G/2G + Wi-Fi® 5 GGts / 2.4 GGts + Bluetooth® 5.0
2.	Operatsion tizim	Android 12 asosidagi Paydroid Qo'shimcha: Android 10
3.	Protsessor	Cortex A55 Octa-Core, 1.6 GGts + himoyalangan protsessor
4.	Fizik xususiyatlari	190.36×81.2×63 mm 395 g (batareya bilan birga)
5.	Aksessuarlar	5V/2A adapter USB Type-C quvvatlash kabeli Qo'shimcha: quvvatlash bazasi Qo'shimcha: quvvatlash + simsiz aloqa bazasi Qo'shimcha: individual fiskal qurilma
6.	Funktsiya Onlayn-NKM	Ushbu funktsiyani ishlab chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan bo'lishi lozim. Funktsiyani faollashtirish va undan foydalanish sub-ijarachilarning alohida arizalari asosida amalga oshirilishi kerak. Agar mazkur funktsiyadan foydalanish biron-bir to'lovni o'z ichiga olsa, ushbu to'lovlar faollashtirish tashabbuskoridan alohida shartnomalar asosida undiriladi.
7.	Xotira	Android 10 versiyasi: 8 GB eMMC Flash + 1 GB DDR3 RAM Qo'shimcha: 16 GB eMMC Flash + 2 GB DDR3 RAM 128 GB gacha kengaytiriladigan microSD karta sloti Android 12 versiyasi: 16 GB eMMC Flash + 2 GB DDR3 RAM Qo'shimcha: 32 GB eMMC Flash + 3 GB DDR4 RAM Qo'shimcha: 64 GB eMMC Flash + 4 GB DDR4 RAM 128 GB gacha kengaytiriladigan microSD karta sloti

8.	Karta o'quvchilar	Chip va PIN (kontaktli EMV chip) Kontaktless (NFC) — teginish orqali to'lov Magnit tasma (magstripe)
9.	Kameralar	Orqa kamera: 5 MP avtofokusli + old kamera: 0.3 MP doimiy fokusli, yoritgichli Qo'shimcha: orqa kamera 5 MP / 8 MP avtofokusli Qo'shimcha: orqa kamera 5 MP / 8 MP avtofokusli + old kamera 2 MP doimiy fokusli
10.	Display	6 dyuymli IPS HD+ 720×1440 piksel, ko'p nuqtali sig'imli sensorli ekran
11.	Printer	80 mm/sek Qog'oz o'rami tashqi diametri: 40 mm
12.	SIM / PSAM	Qo'shimcha: 1 ta micro SIM + 1 ta mini SIM + 1 ta PSAM Qo'shimcha: eSIM
13.	Navigatsiya	AGPS GPS GLONASS BEIDOU
14.	Tugmalar	Yoqish/O'chirish Ovozini balandlashtirish Ovozini pasaytirish Tez skanerlash tugmasi
15.	Audio (tovush tizimi)	1 ta zummer 1 ta dinamika 1 ta mikrofon
16.	Portlar	1 ta Type-C USB OTG 2 kontaktli POGO PIN
17.	Kafolat	Tomonlar jihozlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolagan kundan boshlab 1 (bir) yil
18.	Adapter	Kirish: 100–240V AC, 50Hz/60Hz Chiqish: 5.0V DC, 2.0A
19.	Atrof-muhit shartlari	Ishlash harorati: 0°C ~ 45°C (32°F ~ 113°F) Saqlash harorati: -20°C ~ 70°C (-4°F ~ 158°F) Nisbiy namlik: 5% ~ 95%, kondensatsiyasiz
20.	Sertifikatlar	PCI PTS 6.x SRED EMV L1 va L2 EMV kontaktsizL1 Visa payWave MasterCard Kontaktless UPI qUICS Amex ExpressPay Discover D-PAS JCB J/Speedy Interac Flash TQM CE RoHS QBQ ABECS Anatel FCC IC

Tanlov (tender) savdolari ishtirokchilari doirasini kengaytirish maqsadida, Bank tomonidan Texnik topshiriqda ko'rsatilgan jihozlarga funksional jihatdan o'xshash yoki undan ustun xususiyatlarga ega bo'lgan jihozlar ko'rib chiqiladi.

O'LCHAM VA QADOQLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Qurilmalar zavod qadoqlariga solingan bo'lishi kerak.

Qadoqlash yuk ortish-tushirish ishlari, tashish va saqlash jarayonida tovarlarning but saqlanishini ta'minlashi lozim.

Qadoqlash mexanik shikastlanish va atmosfera yog'inlari ta'siridan himoya qilishni kafolatlab berishi kerak.

MIQDOR VA MAJMUAGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Yetkazib beruvchi to'liq jihozlangan, ishlash qobiliyatiga ega to'lov terminallarini (butun asbob-uskunalar majmuasini) taqdim etishi va zarurat tug'ilganda, Bank tomonidan biron-bir sababga ko'ra hisobga olinmagan, biroq so'ralgan konfiguratsiyadan to'liq foydalanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha modullar, mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishi lozim.

To'lov terminallari soni e'lon qilingan miqdorga mos kelishi kerak:

Miqdori — 1.000 dona

Uskunaning ishlab chiqarilgan yiliga qo'yiladigan talablar.

Terminallar 2025 yildan oldin ishlab chiqarilmagan bo'lishi kerak.

To'lov shartlari:

To'lovlar shartnomaga asosan 100 % to'lab beriladi.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:

O'xshash qurilmalarni sotish tajribasiga ega bo'lish.

(Tasdiqlovchi hujjatlar sifatida shartnomalar, hisob-fakturalar nusxalari taqdim etilishi shart. Imkon bo'lsa, tavsiya xatlari ham taqdim etilishi mumkin.)


Ishtirokchi qurilma ishlab chiqaruvchisidan avtorizatsiyaga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida vakolatli servis markazi mavjud bo'lishi kerak.

Ishtirokchi taklif etilayotgan qurilmalar Buyurtmachi talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi texnik va foydalanish hujjatlarini taqdim etishi shart.

To'lov tizimi talablari, qonun hujjatlari yoki Markaziy bank ko'rsatmalari o'zgargan taqdirda, xarid qilingan qurilmalar yangi talablarga mos keladiganlari bilan almashtirilishi yoki Yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim.

Sotuv kanallarini operatsion
qo'llab-quvvatlash departamenti
direktori


N. Umurzaqov

